

Norqulov Husniddin Do'sbekovich,
*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti bo'limi boshlig'i,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*



JADIDCHILARNING O'SMIR-YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHGA OID PEDAGOGIK QARASHLARI

Annotatsiya. Maqolada jadidlarning ma'rifatparvarlik mafkurasi ijtimoiy jihatdan ancha boy va rang-barang bo'lganligi, unda hozirgi kunda ham jamiyatni to'ldirayotgan, hayajonga soladigan tarixiy vazifa va masalalar keltirilganligi, shuningdek, jadidlar ijodida ham o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash juda muhim ahamiyatga ega ekanligi aks ettirilgan.

Аннотация. В статье отмечается, что просветительская идеология джадидов была очень богатой и красочной с социальной точки зрения и содержит исторические цели и вопросы, которые волнуют общество и по сей день. Также говорится, что подготовка подростков к семейной жизни – высшая цель в творчестве джадидов.

Abstract: In the article it is noted that the Jadids' enlightenment ideology was very rich and meaningful from a social point of view and contains historical goals and issues that concern society to this day. It is also said that preparing adolescents for family life is the highest goal in the work of the Jadids.

Tayanch so'zlar: oila, ota-ona, jadidlar, ma'rifatparvarlar, mafkura, millat, ma'naviyat, jadid maktablari, o'smirlarni oilaga tayyorlash, tarbiya.

Ключевые слова: семья, родители, джадиды, просвещение, идеология, нация, духовность, джадидские школы, подготовка подростков к семье, воспитание.

Keywords: family, parents, Jadids, enlightenment, ideology, nation, spirituality, Jadid schools, preparing adolescents for family life, upbringing.

***O‘zbekiston
Respublikasi
Prezidenti
“Mamlakatimiz
o‘z taraqqiyotining
yangi, yuksak
bosqichiga
kirayotgan hozirgi
paytda bizga jadid
bobolarimiz kabi
g‘arb ilm-fan
yutuqlari bilan
birga, milliy
qadriyatlar ruhida
tarbiya topgan
etuk kadrlar suv
bilan havodek
zarur”, deb bejiz
aytmagan.***

Kirish. Jadidchilikni shakllantirishda ko‘plab millat ziyolilari faol qatnashgan. Jamiyatni o‘rtaasrchilik illatlari, madaniy qoloqlik, mustamlaka zulmi va xurofotdan ozod qilish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish jadidchilikning asosiy maqsadi qilib olingan. Jadid adabiyoti esa ushbu harakat g‘oyalarini aks ettiruvchi badiiy hodisa bo‘libgina qolmay, balki shu harakat zahirida tug‘ildi, uning maqsad va vazifalari taqozosiga ko‘ra maydonga keldi, o‘sha davr ma‘naviy hayotiga ta‘sir ko‘rsatdi. Jadid maktablarining maqsadi xalqqa hamma narsadan burun ma‘rifat tarqatish, zamonaviy ilm-fanni jamiyat hayotiga singdirish, ma‘rifatchilik faoliyatidan iborat edi.

Asosiy qism. Jadidchilik (arabcha yangi) – XIX asr oxiri XX asrning birinchi choragida Markaziy Osiyo, Qrim, Kavkaz va Volgabo‘yi hududlarida shakllangan, yangi zamonaviy maktab, matbaa va taraqqiyotning ilg‘or usul va yo‘llarini yoqlab chiqqan ijtimoiy-ma‘rifiy harakatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “*Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan etuk kadrlar suv bilan havodek zarur*”¹, deb bejiz aytgan.

Jadidlarning ma‘rifatparvarlik mafkurasi ijtimoiy jihatdan ancha boy va mazmunli bo‘lgan. Unda hozirgi kunimizda ham jamiyatni to‘lqinlantiradigan, hayajonga soladigan tarixiy vazifa va masalalari qatoriga biz ma‘naviy barkamollikka erishishda dinni to‘g‘ri anglab tushunib yetishimiz, huquqiy va iqtisodiy bozor makonini tashkil qilish jarayonini tezlashtirishimiz, taraqqiy etgan ilg‘or demokratik institutlarni bunyod qilishimiz, o‘ziga xos milliy rivojlanishlarni kiritishimiz mumkin.

“*Jadidchilik – ijtimoiy-siyosiy harakatdir. Shuning uchun ijtimoiyki, u jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi, milliy uyg‘onish ideologiyasi bo‘lib xizmat qildi. Shuning uchun siyosiyki, u mustaqillik uchun kurash olib bordi... U madaniy harakat ham edi – adabiyotni yangiladi, matbuot va teatrchilikni yo‘lga qo‘ydi, maorifda esa “yangi maktab konsepsiyasi” bilan chinakam inqilob yasadi. Eng muhimi, bularning barchasini ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab ko‘rib chiqdi*”².

¹ Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 22 декабр “Жадидлар ғояси – Янги Ўзбекистон стратегияси билан ҳар томонлама уйғун ва ҳамоханг” Республика Маънавият ва маърифат кенгаши йиғилишидаги маърузаси.

² Қосимов Б. Жадидчилик ва жадид адабиёти (Давра суҳбати) // «Туркистон», 1997 йил 17 май.

Jadidlar dunyoviy ilmlarni egallagan yoshlarni tarbiyalash va ularning ma'naviy ongini o'stirish, o'z vazifasini o'tay olmay qolgan eskicha ta'lim tizimiga innovatsion g'oyalarni singdirish edi. Bundan tashqari, ular ijtimoiy hayot tarzini zamonaviy hayotga moslashtirish, milliy va zamonaviy, diniy va dunyoviy, shuningdek, axloqiy-madaniy normalarni inobatga olgan holda yangi qonunchilik konsepsiyasini ishlab chiqish va joriy etish, davlatning boshqaruv tizimini isloh etish, hududiy tarqoqlikni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, jamiyat rivojlanishining barcha sohalari uchun milliy kadrlarni tayyorlash, davlatlar bilan diplomatik aloqalarni va tashqi siyosat konsepsiyasini o'rnatish kabi bir qancha masalalarni ilgari surdi.

Jadidchilik g'oyalari odamlar ongida oilada ayollarga nisbatan kichik bo'lsa-da, o'zgarish yasay oldi, chunki asarlarida ayollarning jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritildi. Abdurauf Fitrat oilaga bag'ishlangan asarlarida ayollarga, uni qanday hurmat qilish va "Qiz bolalar o'qishi kerakmi?" degan fikrlarga ham to'xtalib o'tgan. Uning fikricha, insonning intellektual qarashlari, oladigan ta'limi ko'p jihatdan ayollarga, onalarga bog'liq. Darhaqiqat, ayol erkakdan ko'ra ma'lumotliroq bo'lishi shart, chunki u, asosan, bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Fitrat ota-onaning vazifasi o'z bolalarini yetuk kishilar qilib tarbiyalashlari zarurligi, bunda ayniqsa, uch tarbiyaga e'tibor berish kerakligini ta'kidlaydi:

1. Jismoniy tarbiya – salomatlikka.
2. Aqliy tarbiya – sog'lom fikrlilikka.
3. Axloqiy tarbiya – axloqiy sano, ya'ni axloqiy poklikka.

Fitrat: "Har bir kishi shu uch quroldan birisiziz maydonga kirsiz, albatta mag'lub bo'lishi tabiiydir", deb aytib, bu bilan uch tarbiyani doimo qo'shib olib borish kerakligini, agar bu tarbiyalarning birontasi kam bo'lsa, yetuk kishini tarbiyalab bo'lmazligini ko'rsatmoqchi bo'ldi. U yana aytadiki: "Agar har bir ota o'z farzandining badbaxt bo'lishini xohlamasa, uni bu maydonning g'olibi qilib tayyorlashi kerak. Farzandingizni jismoniy, aqliy, ruhiy tomondan barkamollikka yetkazing va jamiyatning qobil a'zosiga aylanishi uchun g'amxo'rlik qiling", deydi.

Fitrat, shuningdek, bolalarning jismoniy tarbiyasida turli harakatli o'yinlar katta o'rin tutishini ham aytib o'tadi. Ota-onalariga o'z bolalarining shunday o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishlarini ta'min etishlarini maslahat beradi: "Harakat har bir kishi uchun, ayniqsa bolalar uchun ham zarurdir. Shuning uchun bolalarni jismoniy chiniqtirishda ularni ayrim o'yinlar bilan mashg'ul qilish foydalidir. Bolalarni o'yindan man etishning foydasi yo'qdir. Ularning doimo bir joyda o'tirishlari,

***Jadidchilik
g'oyalari odamlar
ongida oilada
ayollarga nisbatan
kichik bo'lsa-
da, o'zgarish
yasay oldi,
chunki asarlarida
ayollarning
jamiyatni
rivojlantirishdagi
ahamiyati haqida
fikr yuritildi.
Abdurauf
Fitrat oilaga
bag'ishlangan
asarlarida
ayollarga, uni
qanday hurmat
qilish va "Qiz
bolalar o'qishi
kerakmi?" degan
fikrlarga ham
to'xtalib o'tgan.***

“Agar bir kishi yoshligida nafs buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, Allohu Akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo‘l uzatmak kabitur”

harakat qilmasliklari ularning badanlarini zaif bo‘lishlariga olib keladi. Ota-onalar doim o‘z bolalarini o‘yinga tashviq va targ‘ib qilishlari lozimdir. Ammo bolalarning o‘yinlari odob va axloq doirasidan tashqari chiqmasligi kerak”³.

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida “Turkiy Guliston yohud axloq” asari axloqiy va ta’limiy tarbiyaviy asardir. U pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib: “Agar bir kishi yoshligida nafs buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, Allohu Akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo‘l uzatmak kabitur”, deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi insonlar g‘oyat katta ahamiyatga kasb etadi.

O‘zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga “Pedagogiya” – bola tarbiyasining fanidir”, deb ta’rif berdi. Tabiiyki, bunday ta’rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganidan dalolat beradi. Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to‘rt bo‘limga ajratadi hamda uning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritadi:

1. Tarbiyaning zamoni.
2. Badan tarbiyasi.
3. Fikr tarbiyasi.
4. Axloq tarbiyasi.

“Tarbiyaning zamoni” bo‘limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligi hamda bu ishga hammaning – ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta’kidlaydi. Sog‘lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma’rifatga ega bo‘lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. “Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qumoq, o‘qutmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir”.

Bolalarda fikrlash qobiliyatini o‘stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug‘ullanishi benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning: “Diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur... Negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog‘liqdur”.

Avloniy idrok va zako deb ochuq fikrni, xushtabiat, ziyrak bo‘lmoqni tushunadi. U idrok va zakoni ma’rifatparvarlik bilan bog‘lab shunday deydi: “Yoshlikdan boshlab zehn va idrokimizni quvvatlandurmoq uchun aziz umrimizni o‘yin-kulgu, safsata, molo‘ya’ni kabi behuda so‘zlar ila o‘tkarmay, har xil kitob, g‘azeta va jurnallarni o‘qub, fikrimizni ochmoq, zehnimizni quvvatlandurmoq lozimdur”⁴.

³ Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Тошкент: “Маънавият”, 2000. – Б. 26-27.

⁴ Абдулла Авлоний. “Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ”. – Тошкент: “Фан” 1994. – Б. 13-14; – 31 б. Азимий Абдусалом. Таълим ва тарбия. // Ойна, 1915 йил 5 февраль.

Abdusalom Azimiy: “Agarda har millatning istiqbolini bilmak xohlansa ul millatni bolalarig‘a nazar va... alarning sihatlariga va husni tarbiya va ta’limlarig‘a” katta e’tibor zarur”ligini keltirib o’tadi. Shuningdek, “bolag‘a ona birinchi omil va murabbiydir. Onani ta’siri bolag‘a, otani ta’siridan ziyodadir” fikri hamma davr uchun birdek katta ahamiyatga ega. Zotan, “Agarda onalar johila bo‘lmay, balki oqila, muhazzaba, mutaallama va odobi sahihalarga dono bo‘lsalar va bolani o‘z tarbiyasiga muvofiq bo‘luvini tushunsa, hifzi sihat va odobga rioya etsa va nobajo bo‘lunmog‘idan to‘xtatsa va odibi islomiya va axloqi marziya birla tarbiyat etsa, albatta, ul bolani oqil va halim bo‘lmog‘iga shak va shubha yo‘qdur”⁵, deb keltirib o’tadi.

Behbudiy “Padarqush” dramasida boyning uydirma gaplariga ishongan o‘g‘li otasini o‘ldirganini ilmsizlik va tarbiyasizlik oqibatidan deb ko‘rsatadi. Otasi o‘ladi, o‘g‘li qamaladi, uyda yolg‘iz qolgan onaga yangi fikrli domla tasalli berib aytadi: “Onajon, sizga sabrdan boshqa chora yo‘q, bu badbaxtlik va musibatga sabab, jaholat va nodonlikdir, beilmlik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi. Sizni beilmlik xonavayron qildi. O‘g‘lingizni beilmlik Sibirga yuboradi. Joningizdan aziz farzandingizni tarbiyasizlik balosi sizdan umri ayritadur. Bolangizni otasi tarbiya etmadi, o‘qitmadi. Oxiri baloga uchradi, yomon rafiqlar (odamlar) yo‘ldan chiqardilarki, qurboni jaholat bo‘ldingiz”.

Noqobil o‘g‘il ota-onaning erkalatishlaridan taltayib, bekorchilikdan yomon kishilarga qo‘shilib, yomon yo‘llarga yurib, oxir-oqibatda o‘zining va qolgan oila-a’zolari umrini xazon qiladi. “Bizlarni – deb yozadi Behbudiy, - xonavayron... bevatan va bandi qilgan tarbiyasizlik va jaholatdir, bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqirlik, zarurat va xorliklar - hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir... Madomiki, bizlar tarbiyasiz bolalarimizni o‘qitmaymiz, bu tariqa yomon hodisalar va badbaxtliklar oramizda doimo hukmron bo‘lsa kerak. Bu ishlarni yo‘q bo‘lmog‘iga o‘qimoq va o‘qitmoqdan boshqa iloj yo‘qdir”⁶.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab o‘tgan olim **Faxr-ul Banot Sibg‘atulloh** qizining “Qizlar tarbiyasi”, “Oila saboqlari”⁷ kabi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan asarlari mavjud. Olimaning “Oila saboqlari” risolasida xotin-qizlarning tarbiya, axloq, odob masalalari, uy-ro‘zg‘or va bola tarbiyasi, salomatlik va oila sihatini saqlash xususida, qarindoshlar munosabati, qaynona-kelin munosabati, kelinning vazifalari haqidagi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan pand-nasihatlar o‘rin olgan.

“Onajon, sizga sabrdan boshqa chora yo‘q, bu badbaxtlik va musibatga sabab, jaholat va nodonlikdir, beilmlik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi. Sizni beilmlik xonavayron qildi. O‘g‘lingizni beilmlik Sibirga yuboradi. Joningizdan aziz farzandingizni tarbiyasizlik balosi sizdan umri ayritadur. Bolangizni otasi tarbiya etmadi, o‘qitmadi. Oxiri baloga uchradi, yomon rafiqlar (odamlar) yo‘ldan chiqardilarki, qurboni jaholat bo‘ldingiz”.

⁵ Азимий Абдусалом. Таълим ва тарбия. // Ойна. 1915 йил 5 февраль.

⁶ Бехбудий. “Падаркуш”. “Шарк юлдузи” журналы, 1989, 7-сон.

⁷ Фахр-ул Банот Сибгатуллох қизи. Оила сабоқлари. — Тошкент: “Ёзувчи”, 1992. — Б. 96.

Jadidchilarning aksariyati o'z asarlarida Turkiston xalqi madaniyatini rivojlantirish, ma'rifatga chaqirish, Vatan taqdiri va uning istiqboli uchun qayg'urish kabi muammolarni ko'tarib chiqqan edilar. Jadid bobolarimiz Turkiston aholisining ijtimoiy-siyosiy fikr doirasini kengaytirish, xalqning dunyoqarashida madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar yasashning muhim omili sifatida maktab islohotini birinchi zaruriyat deb belgilab olgan edi.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshida yashab ijod etgan tatar olimi **Rizouddin ibn Faxruddinning** “Oila” asarida odob-axloq, oila va nikoh, oiladagi o‘zaro munosabatlar, ota-onaning vazifalari, farzandlar burchi, bola tarbiyasidagi ayolning roli, ayollarning umumiy vazifasi, uylantirishda ota-onaning vazifalari xususida g‘oyatda ibratli maslahatlar va yo‘l-yo‘riqlar berilgan.

Olim mazkur asarda uylanish va xotinlar vazifasi borasida quyidagilarni ta’kidlaydi: “... uylanish masalasini islom shariati buyuk narsalardan deb bilib, oila tuzishni mamlakat tashkil qilish qadar kerakli hisoblab, bu borada bir qancha nizomlar ham chiqqanligi ma’lum. Oila uchun chiqqan nizomlarni, bir kunmas bir kun kelib, vaqti etganda amal etuvchilar o‘z oilalarini ko‘rkam ravishda tuzar va nihoyat, ushbu kichkina mamlakatni idora qila olurlar. Shu sababdan, ko‘pmi-ozmi surajak umrlarini rohat bilan kechirishar va umrlaridan qolgan sanoqli soatlari barokatli bo‘lur”⁸.

Jadidchilarning aksariyati o‘z asarlarida Turkiston xalqi madaniyatini rivojlantirish, ma’rifatga chaqirish, Vatan taqdiri va uning istiqboli uchun qayg‘urish kabi muammolarni ko‘tarib chiqqan edilar. Jadid bobolarimiz Turkiston aholisining ijtimoiy-siyosiy fikr doirasini kengaytirish, xalqning dunyoqarashida madaniy-ma’rifiy o‘zgarishlar yasashning muhim omili sifatida maktab islohotini birinchi zaruriyat deb belgilab olgan edi. “Millatning taraqqiysi aning avval muntazam maktablaridan boshlanur.

Keyingi yillarda yurtimizda jadid ma’rifatparvarlari faoliyatiga qiziqish kuchaygani, ular qoldirgan ilmiy, adabiy merosni o‘rganish keng tus olgani bejiz emas. Millat fidoyilari yuz yil avval davlat va jamiyat taraqqiyoti haqida qayg‘urib, turli muammolarni hal etish yo‘llarini izlashganki, ularning kurash uslubi, jo‘shqin faoliyati bugungi va keyingi avlodlarga xulosa o‘laroq o‘rnak-namuna bo‘la oladi.

Xulosa. Hozirgi davrga kelib, birinchidan, jadidchilik ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida e’tirof etildi, uning xizmatlari tan olindi. Ikkinchidan, jadid adabiyoti milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida baholanib, o‘nlab kitoblar, turli asarlar nashr etilmoqda, ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Uchinchidan, keyingi yillarda asrlar davomida orzu qilingan, jadidlar ham intilib kelgan ezgu g‘oyalar amalga oshmoqda, yurtimizda Yangi O‘zbekistonni bunyod etish imkoni paydo bo‘ldi.

⁸ Ризоуддин ибн Фахруддин. Оила. / Таржимон: Т.Зиёев. — Тошкент: “Меҳнат”, 1991. — 64 б.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 22 декабр “Жадидлар гоёси – Янги Ўзбекистон стратегияси билан ҳар томонлама уйғун ва ҳамоҳанг” Республика Маънавият ва маърифат кенгаши йиғилишидаги маърузаси.
2. Қосимов Б. Жадидчилик ва жаҳид адабиёти (Давра суҳбати) // «Туркистон», 1997 17 май.
3. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Тошкент: “Маънавият”, 2000.
4. АбдуллаАвлоний. “Туркий Гулистон ёҳуд ахлоқ”. – Тошкент: “Фан” 1994.
5. Азимий Абдусалом. Таълим ва тарбия. // Ойна, 1915 йил 5 февраль.
6. Беҳбудий. “Падарқуш”. “Шарқ юлдузи” журнали, 1989, 7-сон.
7. Фахр-ул Банот Сибзатуллох қизи. Оила сабоқлари. – Тошкент: “Ёзувчи”, 1992.
8. Ризоуддин ибн Фахруддин. Оила. / Таржимон: Т.Зиёев. – Тошкент: “Меҳнат”, 1991.